

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

KAMALOVA DILDORA GAYRATOVNA

**JINOYAT SODIR ETISH BOSQICHLARINING NAZARIY VA AMALIY
MUAMMOLARI**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi.

yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)
Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Science (DSc)

Kamalova Dildora Gayratovna

Jinoyat sodir etish bosqichlarining nazariy va amaliy muammolari.....3

Камалова Дилдора Гайратовна

Теоретические и практические проблемы стадии совершения преступления.....35

Kamalova Dildora Gayratovna

Theoretical and practical problems of the stages of committing crime.....71

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works76

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

KAMALOVA DILDORA GAYRATOVNA

**JINOYAT SODIR ETISH BOSQICHLARINING NAZARIY VA AMALIY
MUAMMOLARI**

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi.

yuridik fanlar doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.DSc/Yu345 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rustam Kabulov
yuridik fanlar doktori, professor

Turgunboyev Elbekjon Odiljonovich
yuridik fanlar doktori (DSc)

Toshpo‘latov Akrom Ikromovich
yuridik fanlar doktori (DSc)

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 29-noyabr kuni soat 14⁰⁰dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: +99871 233-66-36; faks: +99871 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№1304-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar Amir Temur ko‘chasi 13-uy. Tel.: +99871 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 14-noyabr kuni tarqatildi.

(2024-yil 14-noyabrdagi 35-raqamli reestr bayonnomasi).

A.A.Otajonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

M.Q.O‘razaliyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

N.S.Salayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda jinoyatchilikka qarshi kurashishda tamom bo‘lmagan jinoyatlar (attempt, conspiracy, solicitation)ni tamom bo‘lgan jinoyatlardan farqlash, ularga nisbatan jazo tayinlash hamda zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa kibermuhitda sodir etiladigan jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish yoki suiqasd qilishni aniqlanishi murakkabligi tendensiyasi kuzatilmoqda. Mamlakatlar jinoiy yurisdiksiyadagi jinoyatga tayyorgarlik va suiqasdni aniqlash mezonlarining turlichaligi, bu bo‘yicha yagona xalqaro standart mavjud emasligi, jinoiy niyatni aniqlash va isbotlashning mexanizmi yo‘qligi ushbu holatlarga olib kelmoqda. Xususan, BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi (UNODC) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo miqyosida har yili o‘rtacha 295 millionga yaqin jinoiy qilmishlar jinoyatga tayyorgarlik yoki uni sodir etishga suiqasd qilish bosqichida amalga oshirilgan bo‘lib, bu umumiy jinoyatchilikning qariyb 60 foizdan ortig‘ini tashkil etadi¹. Mazkur holat tamom bo‘lmagan jinoyatlarning shaxs, uning huquq va erkinliklari hamda jamoat xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotganligi inobatga olinsa, unga qarshi kurash olib borayotgan xalqaro tuzilmalarning faoliyatini bugungi zamon talablariga javob bermayotganligidan dalolat beradi. Bu holat tamom bo‘lmagan jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan qonunchilik va amaliyotni yaxshilashni obyektiv zaruriyatga aylantiradi.

Jahonda jinoyat sodir etish bosqichlarning jinoyat-huquqiy jihatlarini qayta ko‘rib chiqish, tamom bo‘lmagan jinoyatlar uchun javobgarlikni differentsiatsiya qilish hamda adolatli jazo tayinlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e‘tibor berilmoqda. Jumladan, jinoyatga tayyorgarlik va jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun javobgarlik choralarini yengillashtirish hamda ularni oldini olishning tashkiliy-huquqiy choralarini takomillashtirish yuzasidan ma’lum natijalarga erishilgan. Shunga qaramasdan dunyo miqyosida zamonaviy sharoitlarni inobatga olgan holda tamom bo‘lmagan jinoyatlarga qarshi kurashishning nazariy, amaliy va huquqiy jihatlarini kompleks tarzda o‘rganuvchi tadqiqotlarning olib borilmaganligi, ushbu sohadagi muammolarni kompleks tarzda aniqlashni hamda ularga ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqish masalalarini tadqiq etish zaruratini taqozo etadi.

Respublikamizda jinoiy javobgarlikni liberallashtirish, tamom bo‘lmagan jinoyatlarga oid normalarni qo‘llash amaliyotini yaxshilash hamda jinoyat sodir etish bosqichlariga oid bo‘lgan huquqiy bo‘shliqlar va qarama-qarshiliklarni bartaraf etish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilib, mazkur soha muayyan darajada rivojlantirilmoqda. Xususan, “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi”da inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta‘minlashni sud-huquq islohotlarining bosh mezoniga aylantirish², O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasida “tamom

¹ www.unodc.org/criminal_review

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son

bo‘lmagan jinoyat, jinoyatda ishtirokchilik va bir qancha jinoyat sodir etish institutlarini ularning mezonlari va xususiyatlarini aniqlashtirish orqali takomillashtirish¹” jinoyat qonunchiligini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari va vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Ushbu vazifalar jinoyat qonunining tamom bo‘lmagan jinoyatlarga qarshi kurashish hamda qonunni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish masalalarini tadqiq etishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi O‘RQ–561-son “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi, 2019-yil 29-iyuldagi O‘RQ–550-son “Qurol to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi PF–4860-son “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, 2023-yil 16-yanvardagi PF–11-son “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF–158-son ““O‘zbekiston – 2030 strategiyasi” to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi PQ–2833-son “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 14-maydagi PQ–3723-son “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining ijrosini amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi.² Jinoyat sodir etish bosqichlari va ularning jinoyat-huquqiy ahamiyati, tamom bo‘lmagan jinoyatlar uchun javobgarlik doirasi va asosi, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rganlik va jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun jazo tayinlash, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytganlik uchun ishtirokchilar javobgarligining xususiyatlari masalalariga doir ilmiy tadqiqot ishlari jahonning yetakchi xalqaro tashkilotlari hamda oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy markazlarida, jumladan: BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi (UNODC), Stanford

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 14-maydagi PQ–3723-son qarori // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.10.2018 y., 06/18/5547/1975-son

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi: <https://www.unodc.org>, <https://www.vrc.crim.cam.ac.uk>, <https://thedaily.case.edu>, <https://crimereasearch.org>, <http://cdhpi.ca>, <https://www.msu.ru>, <http://www.apu.fsin.su>, <http://www.rudn.ru>, <https://www.kantiana.ru>, <https://www.kazcrim.kz>, <https://tsul.uz> va boshqa manbalardan olingan.

Law School (AQSh), University of Oxford (Buyuk Britaniya), University of Cambridge (Buyuk Britaniya), Brooklyn Law School (AQSh), University of Marburg (Germaniya Federativ Respublikasi), O.Ye. Kutafina nomidagi Moskva davlat yuridik universiteti (RF), Toshkent davlat yuridik universitetida (O'zbekiston) amalga oshirilmoqda.

Jinoyat sodir etish bosqichlari, jinoyatga tayyorgarlik ko'rish tushunchasini o'rganishga doir tadqiqotlarda quyidagi ilmiy natijalarga erishilgan: umumiy huquq tizimida jinoyatga tayyorgarlik ko'rish masalalari "Actus Reus" (jinoiy qilmish) chegarasidan chiqishi bilan birgalikda, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishga nisbatan ko'proq farqlansada, jamiyat uchun ma'lum miqdorda xavf olib kelishligi, jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik uchun javobgarlik belgilash mutanosiblik va adolat prinsiplariga tayanishi lozimligi (University of Cambridge), jinoyat qonunchiligida jinoyatga suiqasd qilish masalalari uchun javobgarlik belgilanishi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilishining dastlabki bosqichlaridanoq uni oldini olishga qaratilgan preventiv xarakterga egaligi, zamonaviy qonunchilik tendensiyalari jinoyatga tayyorgarlik ko'rish tushunchasini substantiv jinoyatlar bilan bir qatorda ishlatilayotganligi (University of Oxford), jinoyatga tayyorgarlik ko'rish bosqichlarida subyektning ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilishi oldidan motivlarining konseptual, falsafiy tahlili (Brooklyn Law School), jinoyatga tayyorgarlik ko'rishdan jinoyatga suiqasd bosqichiga o'tish o'rtasidagi bog'liqlik tahlili, jinoyatga suiqasd tushunchasini tasniflashda huquqiy standartlarning moslashuvchan tabiati (Stanford Law School), jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik uchun javobgarlik barcha choralar samarasiz yakunlangandan so'ng "Ultima ratio" (so'nggi ta'sir chorasi) g'oyasi sifatida namoyon bo'lishi, jinoyatga tayyorgarlik bosqichlarining huquqiy chegaralari (University of Marburg), tamom bo'lmagan jinoyatlar genezisi, zamonaviy holati, jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik va jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun javobgarlikning jinoyat-huquqiy jihatlarini takomillashtirish (Toshkent davlat yuridik universiteti) lozimligi to'g'risidagi xulosalar shakllantirilgan va asoslantirilgan.

Bugungi kunda jahonda tamom bo'lmagan jinoyatlar institutini takomillashtirishga oid quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: kelajakda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan "tugallangan" jinoyat sodir etilish xavfini bartaraf etish hamda jinoyatga tayyorgarlik ko'rish uchun javobgarlik masalalarining o'zaro bog'liqligini takomillashtirish; jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilishni, tamom bo'lgan jinoyatlardan farqlash masalalari; tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun javobgarlikni differentsiatsiya qilish; jinoyat qonunchiligini liberallashtirish sharoitida tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun javobgarlikning jinoyat-huquqiy jihatlarini takomillashtirish va boshqalar.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda jinoyat sodir etish bosqichlarining nazariy va amaliy jihatlarini, xususan, uning o'ziga xos xususiyatlari, tamom bo'lmagan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish va ularga nisbatan jazo tayinlash masalalari nisbatan kam o'rganilgan. Mazkur masalaning ayrim jihatlarini B.D. Axrarov, P. Bakunov, R.A. Zufarov, R. Kabulov, M. Radjabova, M.X. Rustambayev, A.A. Otajonov, A.S. Kayumov, F. Taxirov,

N.S. Salayev, E.O. Turg'unboyev, M. Usmonaliyev, M.K. O'razaliyev, A.S. Yakubovning ilmiy ishlarida jinoyat sodir etish bosqichlariga oid umumiy masalalar tadqiq etilgan.

Respublikamizda A.S. Kayumov jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishning jinoyat-huquqiy belgilari, jinoiy javobgarlik masalasi hamda uni tamom bo'lmagan jinoyatlardan farqlash jihatlarini tadqiq etgan. Shuningdek, E.O. Turg'unboyev qilmishni jinoyat sodir etishga suiqasd deb topish asoslari, kvalifikatsiya qilishda e'tiborga olinadigan holatlar masalasini tadqiq etgan.

Shu bilan xorijlik olimlar S.V. Chernokozinskaya – jinoyatga tayyorgarlik ko'rishning jinoyat-huquqiy jihatlarini, A.Yu. Reshetnikov – jinoyat sodir etishga suiqasd qilishning jinoyat-huquqiy jihatlarini va jazo tayinlash muammolari, T.G. Jukova – jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilish uchun jinoiy javobgarlikni belgilash, V.N. Nekrasov – tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni differentsiatsiya qilish, M.V. Grin, D.Yu. Porotikov, G.V. Nazarenko, M.P. Redin, A.I. Sitnikova, L.Z. Tadevosyan – tamom bo'lmagan jinoyatlarning nazariy va amaliy jihatlarini, A.P. Kozlov, K.T. Tedeev – jinoyat sodir etish bosqichlarining nazariy jihatlarini, T.N. Dronova, I.E. Zvecharovskiy, A.A. Klyuev, A.I. Orlova, A.A. Shakirova¹ – jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish masalalarini tadqiq etishgan.

Yuqorida bayon etilganlar jinoyat sodir etish bosqichlarining jinoyat-huquqiy tavsifiga oid qonun normalari yaxlit holda, jinoyatga tayyorgarlik ko'rish, jinoyat sodir etishga suiqasd qilish, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish uchun javobgarlik nazarda tutilgan normalarining jinoyat-huquqiy tahlili xalqaro huquqiy hujjatlar hamda boshqa qonun hujjatlari asosida kompleks ravishda o'rganilmaganidan dalolat beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va uni qo'llash amaliyotini takomillashtirish muammolari" va "Sud-huquq sohasini isloh qilish va jinoyat qonunini liberallashtirish sharoitida jazo tizimini isloh qilish muammolari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi jinoyat sodir etish bosqichlarining mazmun va mohiyatini tushunishga nisbatan to'g'ri ilmiy yondashuvni ishlab chiqish, unga doir jinoyat-huquqiy normalarining qo'llanilishi bo'yicha normativ-huquqiy baza, qonunni qo'llash amaliyotini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jinoiyat huquqi doktrinasida jinoyat sodir etish bosqichlariga oid konseptual yondashuvlarni ilmiy-nazariy tahlil qilish;

tamom bo'lmagan jinoyatlar genezisi, zamonaviy holatini tadqiq etish va uning huquqiy tavsifini aniqlash;

ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligida jinoyat sodir etish bosqichlari uchun javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

¹ Ushbu olimlar asarlari foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik va jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun javobgarlik belgilanishining ijtimoiy zaruratini ilmiy-amaliy jihatdan asoslash;

jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilishning obyektiv va subyektiv belgilarini tahlil etish va ularga tavsif berish;

tamom bo'lgan va tamom bo'lmagan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish masalalarini tahlil etish natijasida sud amaliyotini takomillashtirish borasida takliflar ishlab chiqish;

tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun jazo tayinlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

jinoyatdan ixtiyoriy qaytish tushunchasi, uning huquqiy belgilarini tadqiq etish va tamom bo'lmagan jinoyatlardan farqli jihatlarining ilmiy va amaliy jihatlarini tahlil etish;

jinoyat sodir etish bosqichlarini tartibga soluvchi jinoyat-huquqiy normalarini hamda qonunni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida jinoyat sodir etish bosqichlarining jinoyat-huquqiy tavsifi, tamom bo'lmagan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish bilan bog'liq jinoyat-huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

Tadqiqotning predmetini jinoyat sodir etish bosqichlari uchun javobgarlik belgilangan huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, qonunni qo'llash amaliyoti, ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti, jinoyat huquqi fanida mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar va huquqiy kategoriyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, aniq sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va deduksiya, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazilmaganlik asoslariga ko'ra, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik uchun javobgarlik belgilash maqsadga muvofiq emasligi asoslantirilgan;

sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasining kamligi sababli jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning yarmidan oshmasligi lozimligi asoslantirilgan;

ishtirokchilikda sodir etiladigan jinoyatda bajaruvchining jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishi qolgan ishtirokchilarning harakatlarini jinoyatga tayyorgarlik ko'rish yoki suiqasd qilish deb baholash uchun asos bo'lishi va tegishli javobgarlikni keltirib chiqarishi asoslantirilgan;

tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchi jinoyatdan ixtiyoriy ravishda qaytib, jinoyatning oldini olish uchun o'ziga bog'liq bo'lgan barcha choralarni o'z vaqtida ko'rganligi natijasida jinoyatning sodir etilishi oldi olinsa, jinoyatda ishtirokchilik uchun javobgarlik istisno qilinishi asoslantirilgan;

jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun jazoning maksimal muddati yoki miqdorini belgilashga oid qoida ayrim turdagi jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik xususiyati yuqoriligi sababli, bunday toifadagi jinoyatlar uchun jazo tayinlashda qo'llanilmasligi asoslantirilgan;

jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladigan o'qotar qurol, o'q-dorilar, o'qotar qurolning asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarini tayyorlashda ashyoga shikast yetkazish xususiyatlarini berishga qaratilgan harakatlar aybdorga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra, oxirigacha yetkazilmagan bo'lsa, o'qotar qurol, o'q-dorilarni, o'qotar qurolning asosiy qismlarini, portlovchi moddalarni, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda tayyorlashga suiqasd qilish sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat.

jinoiy niyatni amalga oshirishga qaratilgan huquqqa xilof, ijtimoiy xavfli qilmish shaxsga bog'liq bo'lgan yoki bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxirigacha yetkazilmagan bo'lsa, tamom bo'lmagan jinoyat deb topilishi asoslangan;

tamom bo'lmagan jinoyatlar toifasi shaxsning irodasiga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxiriga yetkazilmagan (jinoyatga tayyorgarlik ko'rish, jinoyat sodir etishga suiqasd qilish) va shaxsning irodasiga ko'ra oxiriga yetkazilmagan jinoyat (jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish)larga bo'linishi asoslangan;

to'g'ri qasddan jinoyat quroli yoki vositasini tayyorlash, moslashtirish, qo'lga kiritish yoki jinoyat ishtirokchisini izlash, jinoiy til biriktirish yoxud qasddan boshqa sharoit yaratishga qaratilgan qilmish sodir etiladigan jinoyat boshlangunga qadar shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra to'xtatilgan bo'lsa, jinoyatga tayyorgarlik ko'rish deb topiladi, mazmunida yangi tahrirda berish zarurati asoslangan;

to'g'ri qasddan sodir etiladigan jinoyat boshlanib, shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra, harakat yoki harakatsizlik to'liq amalga oshirilmagan yoki shaxs istagan jinoiy oqibat kelib chiqmagan bo'lsa, jinoyat sodir etishga suiqasd qilish deb topiladi, mazmunida yangi tahrirda bayon etish zarurati asoslangan;

huquqbuzarlik sodir etishga bevosita qaratilgan qasddan sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik shaxs irodasiga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxiriga yetkazilmagan bo'lsa, huquqbuzarlikka suiqasd deb topiladi, mazmunidagi norma O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga kiritilishi zarurligi asoslangan;

shaxs jinoyatga shart-sharoit yaratish yoki jinoyat sodir etishga bevosita qaratilgan harakatlarni oxiriga yetkazish real imkoniyati mavjudligini anglagan holda qat'iy, ixtiyoriy, har qanday motiv asosida to'xtatsa, shuningdek, jinoiy oqibat kelib chiqishi mumkinligini anglagan holda, shunday oqibat kelib chiqishining oldini olsa, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb topiladi, tahrirda bayon etish taklifi asoslangan;

jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va jinoyatga suiqasd uchun jazo tayinlash alohida normada bayon etilishi va jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasi

(qismi)da nazarda tutilgan eng ko'p jazoning ikkidan bir qismidan oshmasligi kerak, degan yangi qism bilan to'ldirish zarurati asoslangan;

jinoyatga suiqasd qilganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddasi (qismi)da nazarda tutilgan eng ko'p jazoning uchdan ikki qismidan oshmasligi kerak, degan qism bilan to'ldirish zarurati asoslangan;

ishtirokchilarning jinoyatdan ixtiyoriy qaytishi alohida normada bayon etilishi va ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatda bajaruvchi (birga bajaruvchi) jinoyatni oxiriga yetkazish mumkinligini anglagan holda, jinoyatga shart-sharoit yaratish yoki jinoyat sodir etishga bevosita qaratilgan harakat (harakatsizlik)ni ixtiyoriy va uzil-kesil to'xtatsa, javobgarlik istisno qilish zarurati asoslangan;

bajaruvchi jinoyatdan ixtiyoriy qaytgan yoki bajaruvchiga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra jinoyat oxiriga yetkazilmagan bo'lsa, boshqa ishtirokchilar jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik yoki jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun javobgarlikka tortilishi zarurligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik normalari, xalqaro hujjatlar, ayrim xorijiy davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyotiga asoslangan, 200 dan ortiq sud hujjatlari (hukmlar va ajrimlar), 400 dan ortiq nazariyotchi olimlar va amaliyotchi xodimlar, jumladan surishtiruvchi, tergovchi, sud, advokat va professor-o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar, statistik ma'lumotlar tahlili natijalarini umumlashtirish orqali amaliy jihatdan asoslantirilgan, shuningdek olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalar kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, qonunni qo'llash amaliyotida, jinoyat qonuni hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda jinoyat huquqi, kriminologiya fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati jinoyat qonunchiligini takomillashtirishda, qonun ijodkorligi faoliyatida, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqishda, jinoyat qonuni normalarini qo'llash amaliyotida, shu jumladan, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudlar faoliyatida, oliy yuridik ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida, xususan, "Jinoyat huquqi", "Jinoyat huquqi Umumiy qism qoidalarini qo'llash" va "Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish" fanlaridan o'quv mashg'ulotlari o'tkazishda, shuningdek o'quv, uslubiy adabiyotlar tayyorlashda, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda foydalanishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jinoyat sodir etish bosqichlarining nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish natijalari asosida:

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi bo'yicha ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatga tayyorgarlik ko'rish javobgarlikni keltirib chiqarmasligi haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi loyihasining 28-moddasi 2-qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2022-yil 27-dekabrda 27/2-361-22-son

ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi jinoyatga tayyorgarlik uchun javobgarlikni differentsiatsiya qilinishiga xizmat qilgan;

jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning yarmidan oshmasligi haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi loyihasining 66-moddasi 2-qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2022-yil 27-dekabrda 27/2-361-22-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik uchun insonparvarlik va odillik prinsiplari asosida adolatli jazo tayinlanishiga xizmat qilgan;

ishtirokchilikda sodir etiladigan jinoyatda bajaruvchining jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishi qolgan ishtirokchilarning harakatlarini jinoyatga tayyorgarlik ko'rish yoki suiqasd qilish deb baholash uchun asos bo'lishi va tegishli javobgarlikni keltirib chiqarishi haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi loyihasining 30-moddasi 4-qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2022-yil 27-dekabrda 27/2-361-22-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi qilmishga nisbatan to'g'ri huquqiy baho berishga xizmat qilgan;

tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchi jinoyatdan ixtiyoriy ravishda qaytib, jinoyatning oldini olish uchun o'ziga bog'liq bo'lgan barcha choralarni o'z vaqtida ko'rganligi natijasida jinoyatning sodir etilishi oldi olinsa, jinoyatda ishtirokchilik uchun javobgarlik istisno qilinishi haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi loyihasining 30-moddasi 5-qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2022-yil 27-dekabrda 27/2-361-22-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi qilmishga nisbatan to'g'ri huquqiy baho berishga xizmat qilgan;

jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik hamda jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori Jinoyat kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning to'rt dan uch qismidan oshmasligi kerak, degan qoida o'n sakkiz yoshga to'lmagan jabrlanuvchining nomusiga tegish yoki unga nisbatan zo'rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish bilan bog'liq jinoyatlar; o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish bilan bog'liq jinoyatlar; voyaga yetmagan shaxs tavsiflangan yoki tasvirlangan pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, xuddi shuningdek uni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish yoxud voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega harakatlarning ijrochisi sifatida jalb etish bilan bog'liq jinoyatlar; voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan holda qo'shmachilik qilish, fohishaxonalarni tashkil etish yoki saqlash bilan bog'liq jinoyatlar uchun jazo tayinlashda qo'llanilmasligi haqidagi takliflaridan O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 11-aprelda O'RQ-829-son Qonunining 3-moddasi 2-qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2024-yil 5-iyunda 02/6-09-57-son ma'lumotnomasi). Ushbu

taklifning qabul qilinishi ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun jinoyiy jazoning differentsiatsiya qilinishiga xizmat qilgan;

jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladigan o'qotar qurol, o'q-dorilar, o'qotar qurolning asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarini tayyorlashda ashyoga shikast yetkazish xususiyatlarini berishga qaratilgan harakatlar aybdorga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra, oxirigacha yetkazilmagan bo'lsa, o'qotar qurol, o'q-dorilarni, o'qotar qurolning asosiy qismlarini, portlovchi moddalarni, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda tayyorlashga suiqasd qilish deb kvalifikatsiya qilinishi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-noyabrdagi 31-sonli qarorining birinchi bandi o'n yettinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasining Oliy sudining 2024-yil 14-iyundagi 01-29-51-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif qilmishga to'g'ri huquqiy baho berish va adolatli jazo tayinlanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, jumladan 4 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 17 ta ilmiy maqola (3 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 260 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirishida** tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, uning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Jinoyat sodir etish bosqichlarining ilmiy-nazariy tahlili va ayrim xorijiy davlatlar tajribasi**" nomli birinchi bobi jinoyat huquqi doktrinasida jinoyat sodir etish bosqichlarining o'rni va ahamiyati, fanda jinoyat sodir etish bosqichlariga oid mavjud konseptual yondashuvlar, jinoyat sodir etish bosqichlarining turlari, jinoyat sodir etish bosqichlari va tamom bo'lmagan jinoyat o'rtasidagi farq, ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligida jinoyat sodir etish bosqichlarining tavsifi, tamom bo'lmagan jinoyatlar instituti, uning shakllanishi, rivojlanish genezisi va zamonaviy holati asosida aniqlangan muammolarning yechimiga bag'ishlangan.

Muallif jinoyat sodir etish bosqichlari shaxs jinoiy niyatini amalga oshirilish darajasi va qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini ifodalovchi huquqiy kategoriya ekanligiga urg'u bergan.

Tadqiqotchi M.X. Rustambayev, M. Usmonaliyev, P. Bakunov, A.S. Yakubov, O.X. Rasulov, R. Kabulov, A.A. Otajonov, E.O. Turg'unboyev, Ye.V. Blagov, A.P. Kozlov, A.Yu. Reshetnikov, R.A. Sabitov va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar va fanda ilgari surilayotgan zamonaviy yondashuvlar asosida jinoyat sodir etish bosqichlari "jinoyat-huquqiy bosqichlar" sifatida keng ma'noda talqin etilayotganligi hamda ular jinoyat bilan bog'liq bosqichlar va jinoiy normani qo'llash bilan bog'liq bosqichlar yondashuvi asosida baholanishini qayd etgan. O'z navbatida jinoiy normani qo'llash bilan bog'liq bosqichlar jinoyat-huquqiy kvalifikatsiya bosqichlari va jinoyat-huquqiy ta'sir chorasini aniqlash bosqichlariga ajratilishini bayon etgan. Muallif tomonidan tadqiqotning obyektini sifatida jinoyat bilan bog'liq bo'lgan bosqichlar, ya'ni shaxs jinoiy niyatining rivojlanish darajasi va qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyatini ifodalovchi – jinoyat sodir etish bosqichlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Jinoyat sodir etish bosqichlari shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlar yoki shaxsning ixtiyoriy qaytganligi tufayli tamom bo'lmagan jinoyatlar hamda tamom bo'lgan jinoyatlarni o'zaro farqlash, shaxsning jinoiy javobgarligini differentsiatsiya qilish va pirovardida jazo chorasini individuallashtirish uchun zarur hisoblanadi, degan fikrni asoslagan.

O'rganilgan manbalar asosida jinoyat sodir etish bosqichlari yuzasidan fanda uch xil konsepsiya shakllanganligi qayd etilgan, jumladan, jinoyat sodir etishning barcha jarayonini qamrab oluvchi nazariy-huquqiy kategoriya; tamom bo'lmagan jinoyatning jinoiy jazolanadigan bosqichlari; jinoyat sodir etish davrlari. Muallif mazkur konsepsiyalarning ijobiy jihatlarini umumlashtirgan holda, *jinoyat sodir etish bosqichlari – jinoiy niyatni amalga oshirish darajasi, amalga oshirilgan harakat yoki harakatsizlikning xususiyati va jinoyatni oxiriga yetkazilmaganlik vaqtiga ko'ra farqlanuvchi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishning rivojlanish davri tushuniladi*, degan xulosaga kelgan. Jinoyat sodir etish bosqichlari obyektiv belgilar (qilmishning xususiyati, yuz bergan oqibat, tamom bo'lish vaqti), subyektiv belgilar (jinoiy niyatni amalga oshirish darajasi) va ijtimoiy xavflilik xususiyatiga ko'ra o'zaro farqlanadi.

Muallif ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishning xususiyati va jinoiy qasdning rivojlanish darajasiga ko'ra jinoyat sodir etish bosqichlarini quyidagilarga: 1) *jinoiy niyatning shakllanish bosqichi*; 2) *jinoiy niyatning namoyon bo'lish bosqichi*; 3) *jinoiy niyatni amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratish bosqichi (jinoyatga tayyorgarlik ko'rish)*; 4) *ijtimoiy xavfli qilmishni bevosita amalga oshirishni boshlash bosqichi (jinoyat sodir etishga suiqasd qilish)*; 5) *ixtiyoriy qaytish bosqichi (jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish)*; 6) *tamom bo'lgan jinoyat bosqichi (ijtimoiy xavfli qilmishni to'liq amalga oshirish yoki ijtimoiy xavfli oqibat yuz berishi)*ga ajratish zarurligini asoslagan.

Jinoiy niyatning shakllanishi bosqichi shaxs ruhiy holatida yuzaga keladigan ichki jarayon bo'lib, jinoyat sodir etish istagi tug'iladi, motiv shakllanadi, maqsad belgilanadi. Jinoyat huquqi doktrinasida umume'tirof etilgan prinsip ("cogitationis poenam nemo patitur")ga ko'ra "fikrlar jazolanmaydi", shunga muvofiq, jinoiy

niyatning shakllanishi jinoyat sodir etish bosqichlari hisoblanmaydi, degan qarash shakllangan. Jinoiy niyatning namoyon bo'lishi bosqichida shaxsning jinoyat sodir etish istagi boshqa shaxslar e'tiboriga yetkaziladi (yozma, og'zaki, tasvirda, imo-ishorada, ijtimoiy tarmoqda "Like", "Post", "Emoji" yoki jinoyat sodir etishga rozilik orqali), uni amalga oshirish uchun biron xatti-harakat sodir etilmaydi.

Dissertant ayrim qilmishlarning ijtimoiy xavfli xususiyati yuqoriligini e'tiborga olib, JK Maxsus qismdagi ayrim moddalarda mazkur bosqichda amalga oshirilgan xatti-harakat tugallangan qilmish sifatida jinoiy javobgarlikni yuzaga keltirishini asoslagan va jinoyat-huquqiy ahamiyatini e'tirof etgan.

Shuning uchun jinoiy niyatning namoyon bo'lishi bosqichini axborot yoki ma'lumotlarni og'zaki, yozma, imo-ishora berish orqali sodir etiladigan ijtimoiy xavfli qilmishlar, xususan, jabrlanuvchiga noqonuniy tarzda zo'rlik bilan ruhiy ta'sir o'tkazish yoxud qonunga xilof ravishda u yoki bu axborot va ma'lumotlarni tarqatish xatti-harakatlaridan tashkil topgan jinoyatlar (JK 112, 125, 139, 140, 150, 159-m. 1-q., 165, 192-moddolari) va ishtirokchilar turlari (dalolatchi, tashkilotchi, yordamchi)dan farqlash lozimligini ta'kidlagan. Bunda qonun bilan huquqiy muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlarga xavf solinadi va javobgarlik kelib chiqadi. Yuqoridagilar asosida tadqiqotchi jinoiy niyatning shakllanishi va namoyon bo'lishi jinoyat sodir etish bosqichi hisoblanadi va jinoyat-huquqiy xususiyat kasb etadi, degan xulosaga kelgan.

Tadqiqotchi jinoyat sodir etish bosqichlarining ayrim jihatlariga bag'ishlangan tadqiqotlar (A.Yu. Reshetnikov, Ye. V. Blagov, L.V. Inogamova-Xegay) va xorijiy mamlakatlar qonunchiligi (Qozog'iziston, Ozarbayjon, Germaniya, Fransiya) tahlili asosida faqat to'g'ri qasddan sodir etiladigan jinoyatlarda bosqichlar jinoyat-huquqiy ahamiyatga ega, degan xulosaga kelgan. Ehtiyotsizlik orqali sodir etiladigan jinoyatlar ham muayyan vaqt oralig'ida amalga oshiriladi, biroq, ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz bergunga qadar ehtiyotsizlik qilmishlari ijtimoiy xavfli hisoblanmaydi va javobgarlik kelib chiqmaydi.

Dissertant, tamom bo'lmagan jinoyatlar genezisini tarixiy manbalar asosida o'rganish natijasida jinoyat sodir etishga har qanday urinish qattiq jazolash prinsipidan jinoiy qasdni amalga oshirilganlik darajasi inobatga olingan zamonaviy differensial yondashuv yo'lini bosib o'tganligi aniqlandi, shuningdek, jinoyat huquqi sohasining rivojlanishi natijasida tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun javobgarlik evolyutsiyasi shartli to'rt davrni (antik davr, o'rta asrlar, yangi davr, zamonaviy davr) qamrab olganligini qayd etgan, har bir davr xususiyatlari bayon etilgan.

Jinoyat qonunchiligida tamom bo'lmagan jinoyat shaxsga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra yoki jinoyat qilishdan ixtiyoriy ravishda qaytish tufayli oxiriga yetkazilmay qolgan jinoyat sifatida ifodalanganligiga qaramasdan, bunda obyektiv va subyektiv belgilari to'liq qamrab olinmaganligi bilan bog'liq noaniqliklar qonun normasini qo'llashda murakkabliklarni yuzaga keltirishi va buning natijasida birinchi instansiya sudlari tomonidan tamom bo'lmagan jinoyatlar yuzasidan chiqarilgan sud hukmlarining qariyb 30% yuqori instansiyalari sudlari tomonidan o'zgartirilganligi aniqlandi. Dissertant tamom bo'lmagan jinoyatlar yuzasidan tadqiqotlar olib borgan mualliflarning ilmiy ishlari (V.N. Nekrasov, S.N. Bezugliy,

R.V. Kilimbaev, Ye.V. Blagov) va manbalar tahlili asosida tamom bo‘lmagan jinoyat tushunchasining quyidagi mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi: *jinoiy niyatni amalga oshirishga qaratilgan huquqqa xilof, ijtimoiy xavfli qilmish shaxsga bog‘liq bo‘lgan yoki bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra oxirigacha yetkazilmagan bo‘lsa, tamom bo‘lmagan jinoyat deb topiladi*. Jinoiy jazoga sazovor qilmish sifatida tamom bo‘lmagan jinoyat subyekt talablariga javob beruvchi shaxs tomonidan to‘g‘ri qasddan amalga oshirilishi; harakat yoki harakatsizlik orqali ifodalanishi; jinoyatni oxiriga yetkazilmaganligi; shaxsga bog‘liq bo‘lmagan holatlarning mavjudligi kabi huquqiy belgilarga egaligi asoslantirilgan. Muallif tamom bo‘lmagan jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortishda obyektiv asos – jinoyatni sodir etish uchun zarur shart-sharoit yaratish yoki jinoyatni bevosita amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy xavfli qilmishni amalga oshirilishi va subyektiv asos – ijtimoiy xavfli oqibatlarining yuz berishini istash mavjud bo‘lishi isbotlangan.

Dissertant tomonidan ilmiy manbalar tahlili asosida zamonaviy jinoyat huquqi doktrinasida tamom bo‘lmagan jinoyat turlari yuzasidan besh xil yondashuv mavjudligi va uning asosida jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish tamom bo‘lmagan jinoyat turiga oid bo‘lgan munozaralar yotishi aniqlandi. *Huquqshunoslar (izlanuvchi va olimlar), sudyalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovda ishtirok etgan respondentlarning 45% jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish tamom bo‘lmagan jinoyat turi hisoblanmaydi, deb ko‘rsatishgan*. Tadqiqot natijasida tamom bo‘lmagan jinoyatlar shaxsga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra oxirigacha yetkazilmagan jinoyat – jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilish hamda shaxsga bog‘liq bo‘lgan holatlarga ko‘ra – jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishga ajratilishiga oid taklif ishlab chiqilgan. Muallif tamom bo‘lmagan jinoyatlarning irodaviylik elementini batafsil tahlil qilib, faqat to‘g‘ri qasd orqali ifodalanishi isbotlangan, shuningdek, tamom bo‘lmagan jinoyatlar affekt holatida sodir etilishi yoki murakkab aybli jinoyatlar mavjud bo‘lishi mumkinligini istisno etmaydi, degan xulosaga kelgan. .

Jinoyat ishi materiallari tahlili asosida amaliyotda tamom bo‘lmagan ma’muriy huquqbuzarlik holatlari mavjud bo‘lsada, uni huquqiy jihatdan tartibga solinmaganligi sodir etilgan qilmishga noto‘g‘ri huquqiy baho berilishiga olib kelayotganligi aniqlandi. Jumladan, mulkchilik shaklidan qat’i nazar korxonalar, muassasa, tashkilot mulkini talon-toroj qilishda predmet qiymati jinoiy yoki ma’muriy qilmish sifatida baholanishiga ta’sir ko‘rsatganligi tufayli, qilmish tugallanmagan hollarda asossiz ravishda og‘irroq javobgarlik sifatida baholanmoqda. Vaholanki, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda tugallanmagan ma’muriy huquqbuzarlik uchun ma’muriy jazoga tortilishi nazarda tutilgan. Tadqiqotchi, amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish va xorijiy mamlakatlar (Moldova, Belarus, b.q.) qonunchiligi natijasida MJtKga *“huquqbuzarlik sodir etishga bevosita qaratilgan qasddan sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik shaxs irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra oxiriga yetkazilmagan bo‘lsa, ma’muriy*

huquqbuzarlikka suiqasd deb topiladi” mazmunidagi normani kiritish lozimligi asoslangan.

Ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligini o‘rganish asosida romano-german huquq oilasidagi davlatlar (Germaniya, Fransiya, Italiya) jinoyat qonunchiligida jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish tavsifi alohida keltirilmaganligiga qaramasdan, JK ayrim moddalarida tugallangan qilmish sifatida tavsiflanishi qayd etilgan. Jinoyatga suiqasd turlari o‘zaro differentsiatsiya qilinib, faktik xato oqibatida sodir etilgan suiqasd, yaroqsiz suiqasd tamom bo‘lmagan jinoyat turlari bo‘lib, yengilroq jazo tayinlanishi yoinki shaxs javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin. JK ayrim moddalarida shaxs jinoyatdan ixtiyoriy qaytganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinishi nazarda tutilgan. Anglo-sakson huquq oilasidagi davlatlarda (Buyuk Britaniya, AQSh) jinoyatga suiqasd, kelishuv va dalolatchilik tamom bo‘lmagan jinoyat turlari hisoblanadi. Jinoyatga suiqasd qilish “actus reus” (obyektiv element) va “mens rea” (subyektiv element) jamlanmasidan iborat bo‘lishi lozim. Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va jinoyatga suiqasd qilishni o‘zaro farqlash sudlar ixtiyoriga berilgan. MDH davlatlari qonunchiligiga muvofiq, faqat ayrim turdagi jinoyatlarga tayyorgarlik ko‘rganlik uchun javobgarlik kelib chiqadi, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va jinoyatga suiqasd qilish uchun jazo chorasi differentsiatsiya qilingan, tayinlanadigan jazoning yuqori muddati qilmish kvalifikatsiya qilingan moddaning tegishli qismi (bandi) chegarasi asosida belgilangan, ayrim davlatlarda jinoyatga suiqasd turlari asosida javobgarlik o‘zaro farqlanishi nazarda tutilgan. Shuningdek, ba’zi davlatlarda jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish javobgarlikdan ozod qilish turi ekanligi belgilangan, ishtirokchilarning xususiyatidan kelib chiqqan holda jinoyatdan ixtiyoriy qaytishning xususiyatlari va javogarlik shartlari alohida-alohida tavsiflanganligi tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning “**Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishning nazariy-huquqiy va amaliy tahlili**”ga bag‘ishlangan ikkinchi bobida jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va uning shakllarining tavsifi, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rganlik uchun javobgarlik: ilmiy-nazariy yondashuvlar, huquqni qo‘llash amaliyotida jinoyatga tayyorgarlik ko‘rganlik uchun jazo tayinlashni takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan.

Dissertant ushbu bobda JK Umumiy qismdagi jinoyatga tayyorgarlik ko‘rganlik uchun javobgarlik normasi jinoyatlarga qarshi kurashish va oldini olishning huquqiy asosi hamda jinoyat rivojining dastlabki bosqichida to‘xtatishga qaratilgan umumiy (preventiv) norma, degan xulosaga kelgan. Tadqiqot ishida jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishning quyidagi shakllarini amaliy misollar asosida tavsiflagan: 1) jinoyat quroli va vositasini qo‘lga kiritish; 2) jinoyat quroli va vositasini tayyorlash; 3) jinoyat quroli va vositasini moslashtirish; 4) jinoyat ishtirokchilarini izlash; 5) jinoyat sodir etish uchun til biriktirish. 6) jinoyatni sodir etishga boshqa shart-sharoit yaratuvchi qilmish.

Tadqiqotchi jinoyatga tayyorgarlik ko‘rganlik uchun jinoiy javobgarlikning asosi shaxs sodir etgan qilmishida jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish tarkibining mavjud bo‘lishini isbotlagan holda jinoyat tarkibi belgilariga ko‘ra tahlil qilgan: 1) obyekt – jinoyat qonuni bilan qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishning real xavfi yuzaga kelishi; 2) obyektiv tomoni – jinoyatga shart-sharoit yaratishga qaratilgan qilmishni amalga oshirilishi va shaxsning irodasiga

bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxiriga yetkazilmaganligi; 3) subyekt – JK Maxsus qism tegishli normasida ko'rsatilgan umumiy subyekt talablariga muvofiq bo'lishi; 4) subyektiv tomoni – to'g'ri qasddan amalga oshiriladi. Muallif jinoyatga tayyorgarlik ko'rish tarkibini tashkil qiluvchi xatti-harakatlar doim jinoyat obyektiv tomoni tashqarisida bo'lishi, binobarin obyektiv tomon amalga oshirilgandan boshlab shaxsning harakatlari bevosita jinoyat sodir etishga qaratilishi va jinoyatga suiqasd tarkibini tashkil etishini isbotlagan.

Jinoyat quroli yoki vositasini izlash, moslashtirish, tayyorlash muayyan jinoyat sodir etishning usuli bo'lib, boshqa tugallangan jinoyatni amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoit yaratishni ta'minlab beradi, aybdorning maqsadiga erishishni osonlashtiradi. Bunday hollarda, "o'qotar qurol, o'q-dorilar, o'qotar qurolning asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalari qonunga xilof ravishda boshqa jinoyatni sodir etish maqsadida egallangan, shuningdek tayyorlangan, olingan, olib yurilgan, saqlangan hollarda sodir etilgan qilmish tugallangan jinoyat (JK 247 yoki 248-moddasi) va boshqa jinoyatni sodir etishga tayyorgarlik tariqasida kvalifikatsiya qilinishi lozim, degan xulosaga kelingan.

Dissertant tomonidan ilmiy manbalar tahlili asosida (M.A. Chelsov, M.V. Grin, Yu. Yushkov, D.Yu. Porotikov, Yu.V. Gracheva, R.V. Kilimbaev, V.F. Lapshin) jinoyat huquqi doktrinasida jinoyatga tayyorgarlik ko'rish uchun javobgarlik yuzasidan besh xil tendensiya mavjudligi aniqlandi: 1) tayyorgarlik umuman kriminalizatsiya qilinmaydi; 2) ayrim istisnolardan tashqari kriminalizatsiya qilinmaydi; 3) jinoyat tasnifidan kelib chiqqan holda kriminalizatsiya qilinadi; 4) har qanday jinoyatga tayyorgarlik ko'rish javobgarlikni yuzaga keltiradi; 5) jinoyatga til biriktirganlik uchun javobgarlik kelib chiqadi. Mazkur yondashuvlar asosida muallif tayyorgarlik ko'rishning ijtimoiy xavflilik darajasi pastligi, jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga bevosita tajovuz amalga oshirilmaganligi, jinoiy oqibat yuz bermaganligi va ayrim ilg'or xorijiy mamlakatlar qonunchiligi tahliliga tayanib, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarga tayyorgarlik ko'rganlik uchun javobgarlik kelib chiqmasligiga oid o'zgartirish kiritish lozimligini asoslagan. *Huquqshunos olimlar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga muvofiq, respondentlarning jami 12,8% faqat ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarga tayyorgarlik ko'rganlik uchun javobgarlik kelib chiqishini bildirgan.* Shuningdek, muallif jinoyatga tayyorgarlik ko'rishning ijtimoiy xavflilik xususiyati kamligini inobatga olib, jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik uchun sudlanganlik holatining tugallanishi jazo ijro etilgan yoki to'liq o'tib bo'lingan paytdan boshlab hisoblanishi yuzasidan alohida norma kiritish taklifi asoslantirgan. Ijtimoiy so'rovdagi respondentlarning 50,4% mazkur taklifni maqullagan.

JK Maxsus qismida jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik xususiyati va jinoyat qonuni bilan muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlarning ahamiyati yuqoriligi e'tiborga olinib, qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyatga sharoit yaratish bosqichida sodir etilgan jinoyatga tayyorgarlik ko'rish tugallangan jinoyat sifatida belgilangan, bunday hollarda qilmish JK 25-moddasiga havola qilinmagan holda kvalifikatsiya qilinadi. Shunga muvofiq, "Jinoyat kodeksi Maxsus qismida nazarda

tutilgan jinoyatga tayyorgarlik ko‘rganlik uchun alohida jinoyat tarkibida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno”, degan qoida kiritilishi maqsadga muvofiqligi asoslangan.

O‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, *respondentlarning 56% tamom bo‘lmagan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish bilan bog‘liq muammolarga duch kelishini qayd etib*, bunda jinoyatning tamom bo‘lish vaqtini aniqlash, jinoyatga suiqasd qilishni tamom bo‘lgan jinoyat va jinoyatdan ixtiyoriy qaytishdan farqlash, shuningdek jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishning jinoyatga suiqasd qilishdan ajratish bilan bog‘liq ekanligi aniqlangan. Shunga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining «*Sudlar tomonidan tamom bo‘lmagan jinoyatlarga oid qonunchilikni qo‘llash to‘g‘risida*»gi qarori loyihasini ishlab chiqqan. Shaxs tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy xavfli qilmish qaysi bosqichda oxiriga yetkazilmaganligidan kelib chiqib, qilmish tamom bo‘lmagan jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinadi va JK 25-m. tegishli qismiga havola qilinadi. Istisno tariqasida jinoiy natijaga erishishga qaratilgan yagona jabrlanuvchiga nisbatan yagona motiv va maqsad asosida qisqa vaqt oralig‘ida amalga oshirilgan va oxiriga yetkazilmagan harakat (harakatsizlik) JK 25-m. bilan qamrab olinib, tegishli qismlariga havola qilinmaydi.

Qonunda nazarda tutilgan kvalifikatsiyalovchi belgilar aybdorning ongi bilan qamrab olingan bo‘lsa, javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlarda sodir etilgan jinoyatga tayyorgarlik (yoki jinoyatga suiqasd) deb topilishi lozim. Aksincha, javobgarlikni og‘irlashtiruvchi holatlar aybdor ongi bilan qamrab olinmagan bo‘lsa, qilmish og‘irlashtiruvchi belgilersiz jinoyatga tayyorgarlik (yoki jinoyatga suiqasd) deb topilishi lozim. Shuningdek, yetkazilgan zarar miqdori og‘irlashtiruvchi holat bo‘lganda jinoyat sodir etish bosqichi shaxs jinoiy niyatini amalga oshirish darajasidan kelib chiqib aniqlanadi. Ya’ni bunda qasd yo‘nalishi va og‘irlashtiruvchi belgilarni inobatga olgan holda, jinoyatga tayyorgarlik yoki jinoyatga suiqasd deb kvalifikatsiya qilinishi asoslangan. Huquqshunoslar (izlanuvchi va olimlar), sudyalar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovda ishtirok etgan respondentlarning 47,4% jinoyat huquqida “aksioma” sifatida mustahkamlangan “kesik tarkibli jinoyatga suiqasd qilish mumkin emas” fikrini yoqlagan. Tadqiqotchi o‘rganilgan manbalar asosida qarama-qarshi holat mavjud bo‘lishi va kesik tarkibli jinoyatlarga suiqasd qilish mumkinligini isbotlagan (badanga og‘ir shikast yetkazgan holda sodir etilgan bosqinchilikka suiqasd, qurolli bosqinchilikka suiqasd, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hayotiga tajovuz qilishga suiqasd va h.k.).

Dissertant tomonidan ilmiy manbalar, xorijiy amaliyot materiallari tahlili va o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari asosida *jinoyatga tayyorgarlik ko‘rganlik uchun jazoning muddati yoki miqdori JK Maxsus qismining tegishli moddasi (qismi)da nazarda tutilgan eng ko‘p jazoning ikkidan bir qismidan oshmasligi kerak, degan xulosaga kelingan.*

Dissertatsiyaning **“Jinoyat sodir etishga suiqasd qilishning nazariy va amaliy muammolari, ular bilan bog‘liq normalarni takomillashtirish”** nomli uchinchi bobida jinoyatga suiqasd qilishning ilmiy-nazariy tahlili, qilmishni kvalifikatsiya qilishda jinoyatga suiqasd qilish turlarining huquqiy ahamiyati,

jinoyat sodir etishga suiqasd qilishni kvalifikatsiya qilish muammolari va uning yechimlari taklif qilingan, shuningdek, jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun jazo tayinlashni takomillashtirish istiqbollari tahlil qilingan.

Dissertatsiyada jinoyatga suiqasd qilishning obyektiv va subyektiv belgilari tahlili asosida ilmiy manbalarda ifodalangan ta'riflar uchta guruhga ajratilib o'rganilgan. Shunga muvofiq, *“to'g'ri qasddan sodir etiladigan jinoyat boshlanib, shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra, ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik to'liq amalga oshirilmagan yoki shaxs istagan jinoiy oqibat kelib chiqmagan bo'lsa, jinoyat sodir etishga suiqasd qilish”* degan mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan.

Muallif ilmiy manbalarda keltirilgan fikrlar asosida (M.X. Rustambayev, E.O. Turg'unboyev, D.Yu. Porotikov, A.Yu. Reshetnikov, T.G. Jukova, M.R. Redin, N.N. Baymakova, V. Pitesskiy) jinoyatga suiqasd qilish tarkibining quyidagi belgilarini ajratgan: 1. *Jinoyatga suiqasd qilishning obyektiv belgilari* – ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazilishi; jinoyat sodir etishning bevosita boshlanganligi; JK Maxsus qism dispozitsiyada nazarda tutilgan harakat yoki harakatsizlikning amalga oshirilishi; shaxs istagan jinoiy oqibat yuz bermasligi; boshlangan jinoyat shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxirigacha yetkazilmasligi (bevosita obyektiv sabablar, ya'ni shaxs irodasi bilan qamrab olinishi mumkin bo'lgan holatlar va bilvosita obyektiv sabablar, ya'ni jinoyat sodir etish jarayonida yuzaga kelgan vaziyatlar)da ifodalanadi. 2. *Jinoyatga suiqasd qilishning subyektiv belgilari* – shaxsda jinoyat sodir etishga qaratilgan *to'g'ri qasdning mavjudligi* (shaxs harakati yoki harakatsizligi JK Maxsus qismida nazarda tutilgan muayyan jinoyatni sodir etishga qaratilgan bo'lib, qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglaydi, mazkur harakat (harakatsizlik)ni bajarishni va oxirigacha yetkazishni istaydi yoxud shaxs harakati yoki harakatsizligi natijasida ijtimoiy xavfli oqibatning yuz berishi mumkinligi yoki muqarrarligiga ko'zi yetishi va yuz berishini istashi); *shaxsning maqsadi* – to'g'ri qasddan sodir etiladigan jinoyatni bajarishga bevosita qaratilgan harakatlar (harakatsizlik)ni bajarish va jinoyatni oxiriga yetkazish. Muallif egri qasddan sodir etiladigan jinoyatga suiqasd qilish mumkin emasligini isbotlagan va shunga muvofiq, JK 25-moddada ifodalangan “qasd” tushunchasi o'rniga “to'g'ri qasd” tushunchasi qo'llanilishi, lozim degan xulosaga kelingan. Shaxs qilmishida jinoyat tarkibi – suiqasdning barcha belgilari mavjudligi jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun jinoiy javobgarlikning asosi deb topilishi lozimligi asoslangan.

Dissertatsiyada jinoyat sodir etishga suiqasd turlarining jinoyat-huquqiy ahamiyati, qilmishni kvalifikatsiya qilish va jazo tayinlashga ta'siriga oid ilmiy manbalar guruhlashtirilib tahlil qilingan. Buning natijasida muallif jinoyatga suiqasd qilish turlari shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyati bilan bevosita bog'liq va jazoni individuallashtirishda e'tiborga olinishi; tamom bo'lmagan suiqasdda jinoyatni oxirigacha yetkazilmasligining sababi shaxs xatti-harakatlarining natijasi bo'lganligi tufayli JK Maxsus qism sanksiyasida nazarda tutilgan yengilroq jazo tayinlanishi; yaroqsiz suiqasd qilmishning kvalifikatsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatishi va hatto ayrim hollarda jinoiy javobgarlik kelib chiqmaydi, degan xulosalarga kelgan.

Jinoyat huquqi ta'limotida *jinoyatga suiqasd qilishni turlarga ajratish* mezonlari to'g'risida yagona yondashuv mavjud emasligi tufayli subyektiv mezon, obyektiv mezon yoki aralash mezon asosida yondashiladi. O'tkazilgan tadqiqot asosida jinoyatga suiqasd qilish shaxs subyektiv fikriga ko'ra ikki turga ajratildi. Shaxs tomonidan jinoiy maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan barcha harakat yoki harakatsizlik amalga oshirilgan, biroq, shaxs istagan oqibat unga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra yuz bermagan bo'lsa, qilmish *tamom bo'lgan suiqasd* deb topiladi. Mazkur suiqasd turi tamom bo'lgan jinoyatdan shaxs istagan ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz bermaganligiga ko'ra farqlanadi. Jinoiy niyatga erishish uchun zarur bo'lgan barcha harakat (harakatsizlik) shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra amalga oshirilmagan bo'lsa, qilmish *tamom bo'lmagan suiqasd* deyiladi. Tamom bo'lgan va tamom bo'lmagan suiqasd *obyektiv element* (tamom bo'lgan suiqasd – JK Maxsus qism dispozitsiyasida nazarda tutilgan barcha qilmishlar to'liq bajarilgan, biroq oqibat kelib chiqmagan; tamom bo'lmagan suiqasd – JK Maxsus qism dispozitsiyasida nazarda tutilgan harakat yoki harakatsizlik to'liq bajarilmagan), *subyektiv element* (tamom bo'lgan suiqasd – shaxs o'zi tomonidan amalga oshirilgan qilmish jinoiy qasdini amalga oshirish uchun yetarililigini angelaydi, biroq jinoiy natija yuz bermaydi; tamom bo'lmagan suiqasd – subyektiv ichki ishonchiga ko'ra barcha zarur harakatlar amalga oshirilmaganligini angelaydi), *jinoyat tarkibi tuzilishiga* (tamom bo'lgan suiqasd – moddiy tarkibli jinoyat; tamom bo'lmagan suiqasd – moddiy, formal tarkibli jinoyatlarda mavjud bo'ladi) ko'ra farqlanadi. Tamom bo'lgan va tamom bo'lmagan suiqasd ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasiga ko'ra farqlanganligi tufayli jazo tayinlashda e'tiborga olinishi maqsadga muvofiq. Muallif ta'kidlashicha, tamom bo'lgan va tamom bo'lmagan suiqasd atamalarini qo'llashda “tamom bo'lgan jinoyat” va “tamom bo'lmagan jinoyat” tushunchalari bilan noaniqliklar yuzaga kelayotganligi sababli “*yakunlangan suiqasd*” va “*yakunlanmagan suiqasd*” tushunchalari qo'llanilishi lozim.

Ilmiy manbalarda qayd etilgan jinoyat sodir etishga suiqasd yaroqlilik darajasiga ko'ra yaroqsiz obyektga suiqasd, yaroqsiz predmetga suiqasd, yaroqsiz vositalar bilan suiqasd turlariga ajratilishi qo'llab quvvatlandi. Yaroqsiz suiqasdda shaxsning yo'l qo'ygan xatosi tufayli oxirigacha yetkazilmay, jinoyat tarkibi elementining subyektiv tomoni bilan uzviy bog'liq va ayrim hollarda yaroqsiz suiqasd uchun jinoiy javobgarlik yuzaga kelmasligi uning jinoyat-huquqiy ahamiyatini tashkil etadi. Yaroqsiz obyektga suiqasdda qilmish shaxsning yo'l qo'ygan faktik xatosi tufayli oxirigacha yetkazilmaydi, jinoyat yakunlanmasligining sababi shaxsning jinoiy tajovuzi qaratilgan ijtimoiy munosabat to'g'risidagi noto'g'ri tasavvuri hisoblanadi. Muallif yaroqsiz obyektga suiqasd uchun jinoiy javobgarlik kelib chiqmasligi lozim, degan xulosaga kelgan. Yaroqsiz predmetga nisbatan suiqasd va yaroqsiz vositalar bilan suiqasd uchun jinoiy javobgarlik kelib chiqadi. Muallif yaroqsiz suiqasd qoidalaridan kelib chiqqan holda, Plenum qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan tegishli takliflar kiritish zaruratini asoslagan.

Mutaxassislardan “*Amaliy faoliyatingizda tamom bo'lmagan jinoyatlarni (jinoyat sodir etishga suiqasd qilish) kvalifikatsiya qilish va jazo tayinlashda*

muammolarga duch kelganmisiz?”, deb so‘ralganda respondentlarning qariyb 63% “ha” deb javob berishgan. Shuningdek, yuqori instantsiya sudlari tomonidan tamom bo‘lmagan jinoyatlarga oid sud qarorlari 2023-yilda 26%, 2022-yilda 32%, 2021-yilda 30% va 2020-yilda 24% apellatsiya, kassasiya yoki nazorat tartibida o‘zgartirilganligi aniqlandi. Dissertant, *jinoyatga suiqasd qilishni kvalifikatsiya qilishda quyidagi holatlar aniqlanishi* lozimligini asoslab bergan, jumladan: shaxs jinoyatni sodir etishga bevosita kirishganligi (JK Maxsus qism tegishli dispozitsiyada nazarda tutilgan obyektiv tomon sodir etish boshlanganligi); harakat (harakatsizlik) to‘liq hajmda amalga oshirilmaganligi yoki JK Maxsus qism moddasi (qismi)da nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz bermaganligi; jinoyatni oxiriga yetkazilmaganlik sabablari (shaxsning irodasidan tashqari yuz bergan holatlar mavjud bo‘lganligi tufayli yoki o‘ziga bog‘liq bo‘lgan sabablar natijasida qilmish yakunlanganligi); jinoiy qasdning yo‘nalishi. O‘rganilgan jinoyat ishi materiallari va sud hukmlari tahlili asosida jinoyat sodir etishga suiqasd qilishni qasd turlaridan kelib chiqqan holda kvalifikatsiya qilish qoidalari ishlab chiqilgan.

Konkretlashgan qasdda sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish aybdor istagan oqibatga nisbatan suiqasd; *alternativ qasdda* shaxs istagan yengilroq oqibatlariga suiqasd hamda *konkretlashmagan qasdda* og‘irroq oqibatlariga suiqasd deb kvalifikatsiya qilinadi. Birinchi instantsiya sudlarining hukmlari yuqori instantsiya sudlari tomonidan apellyatsiya va kassatsiya tartibida o‘zgartirilganlik holatlari tahlili asosida mazkur jinoyatlarning asosiy ulushi o‘zgarlar mulkini talon-toroj qilish jinoyatlariga to‘g‘ri kelishi aniqlandi. Shunga muvofiq, dissertant tomonidan mazkur jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda quyidagi holatlarga e‘tibor qaratish lozimligi asoslantirilgan. Talon-toroj qilish to‘g‘ri konkretlashmagan qasd orqali sodir etilib, shaxsga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra oxiriga yetkazilmaganda, shaxs haqiqatda yuz bergan oqibatlar asosida javobgarlikka tortiladi. Jinoyat miqdoriy konkretlashmagan qasd orqali sodir etilganda ko‘zi yetgan yengilroq oqibatlariga suiqasd uchun, sifatiy konkretlashmagan qasdda jinoyat oxiriga yetkazilmagan bo‘lsa, javobgarlik kelib chiqmaydi.

Dissertant jinoyat huquqida aksioma sifatida shakllangan “amalga oshmagan ishtirokchilik tayyorgarlik deb topiladi”, fikri mavjud holatni to‘liq aks etmasligini ta’kidlagan holda, ishtirokchilikda ham jinoyat sodir etish bosqichlarini ajratish zarurligi va quyidagi tartibda kvalifikatsiya qilish taklifi ishlab chiqilgan: 1) tamom bo‘lmagan jinoyatda tamom bo‘lmagan ishtirokchilik (masalan, 28-m. 5-q., 25-m. 2-q., 25-m. 2-q., 167-m. 1-q.), bunda asosan, bajaruvchining qilmishi o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra oxiriga yetkazilmaganligi tufayli yordamchilik tugallanmagan deb topiladi; 2) tamom bo‘lgan jinoyatda tamom bo‘lmagan ishtirokchilik (masalan, 25-m. 2-q., 28-m. 5-q., 167-m. 1-q.), bunda bajaruvchining qilmishi oxiriga yetkazilgan, biroq yordamchining qilmishi o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra tugallanmagan bo‘ladi. Bunda yordamchining qilmishi va yuz bergan oqibat o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishda yordamchiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra uzilish mavjud bo‘ladi. Yuqoridagi algoritm jinoyatda ishtirok etganlik xususiyati va darajasini hisobga olgan odilona jazo tayinlanishiga xizmat qiladi.

Jinoyatga suiqasd qilganlik uchun jazo tayinlashda e'tiborga olinadigan holatlar tahlil qilinib, quyidagi xulosalar shakllantirilgan. JK 58-moddasida bayon etilgan "eng ko'p jazosi" tushunchasining tavsifida, *moddaning tegishli qismida nazarda tutilgan har qanday jazo turining eng yuqori muddati yoki miqdori* sifatida bayon etilishi, shuningdek, mazkur o'zgartirish JK 57¹ va 57²-moddalariga kiritilishi; aybdor shaxsga nisbatan jazo tayinlash vaqtida normalar raqobati mavjud bo'lganda, ko'proq ustunlik beruvchi norma qo'llanilishi; JK 58-moddasining 2-qismi qo'llanilganda va tayinlanadigan jazo muddati yoki miqdori JK Maxsus qism tegishli moddasida nazarda tutilgan eng minimal muddatdan kam bo'lganda, JK 57-moddasiga havola qilish talab etilmasligi (jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini jiddiy kamaytiruvchi holatlar mavjud bo'lmasa); takroran jinoyat sodir etilib, ulardan loaqal biri jinoyatga tayyorgarlik ko'rish yoki jinoyatga suiqasd qilish bo'lganda, sodir etilgan qilmishlar jinoyatlar majmui sifatida baholanishi va JK 59-modda qoidalarini asosida jazo tayinlanishi maqsadga muvofiqligi, bunda tamom bo'lgan va tamom bo'lmagan jinoyatlar uchun alohida-alohida jazo tayinlanishi qilmishga individual yondashish, JK 58-modda qoidalarini tegishligiga ko'ra qo'llash orqali aybdor qilmishiga mutanosib jazo tayinlashga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning "**Tamom bo'lgan jinoyatning ilmiy-nazariy tahlili**"ga bag'ishlangan to'rtinchi bobida tamom bo'lgan jinoyat va uning uchun javobgarlik asoslari, jinoyatlarning tamom bo'lish vaqtiga ko'ra jinoyat tarkibi turlari va tuzilishi muammolari tahlil qilingan.

Muallif tamom bo'lgan jinoyat atamasi ikki xil ma'noda – jinoyat sodir etish bosqichi hamda qasd va ehtiyotsizlik orqali sodir etiladigan jinoyat turi sifatida tushunilishini qayd etib, bunda jinoyatning yuridik va faktik tamom bo'lish vaqtini aniqlash muhimligi qayd etilgan. Shundan kelib chiqqan holda, sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishda JK Maxsus qismida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha elementlari va belgilari mavjud bo'lsa, *tamom bo'lgan jinoyat* deb topiladi. Tadqiqotchi jinoyat huquqi doktrinasidagi jinoyat sodir etilgan payt yuzasidan olimlar fikri tahlili natijasida (A.V. Popov, N.N. Baymakova, Z. Shamsiddinov, S.F. Milyukov, A.N. Ignatov) bir davrli, ko'p davrli, davomli, uzoqqa cho'zilgan va natijasi uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarga ajratilgan.

Manbalar tahlili natijasida *davomli jinoyatlarning tizimlilik, yuridik jihatdan o'xshash xatti-harakatlardan iboratligi va vaqt jihatdan uzoqligi, subyektiv yagonalik xususiyatlari* aniqlangan. Muallif davomli jinoyatning boshlanish vaqti yagona davomli jinoyatni tashkil qiluvchi bir necha o'xshash xatti-harakatlarning birinchisi sodir etilgan payt bo'lsa, tamom bo'lish vaqti davomli jinoyatni tashkil qiluvchi so'nggi xatti-harakat sodir etilgan payt degan, xulosaga kelgan. *Davomli jinoyatni tashkil qiluvchi ijtimoiy xavfli qilmish(lar) shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxiriga yetkazilmagan hollarda, davomli jinoyatga suiqasd deb topilishi asoslantirilgan.* Shunga muvofiq, Plenum qarorida quyidagicha tushuntirish berilishi maqsadga muvofiq: "bunday hollarda qilmish aybdorning qasdi qaratilgan mulk qiymatidan kelib chiqqan holda, talon-toroj qilishga suiqasd deb topilishi lozim". Shuningdek, "aybdorning qasdi juda ko'p miqdordagi mulkni talon-toroj qilishga qaratilgan bo'lib, uning muayyan bir qismi talon-toroj

qilingan va faktik jihatdan talon-toroj qilingan mulk qiymati juda ko'p miqdorni tashkil qilgan hollarda ham, qilmish tugallangan juda ko'p miqdorni talon-toroj qilish sifatida baholanishi lozim" mazmundagi tushuntirish berilishi maqsadga muvofiq.

Uzoqqa cho'zilgan jinoyatlar majburiyatlarni uzoq vaqt davomida bajarilmaslik, jinoyat tarkibini amalga oshirishning uzluksizligi, harakatsizlik orqali amalga oshirilishi xususiyatlari aniqlangan. Uzoqqa cho'zilgan jinoyatlarning tamom bo'lish vaqti qilmishni amalga oshirish tugallangan (shaxs irodasiga ko'ra tugallanishi) yoki to'xtatilgan (shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra) payt hisoblanadi.

Natijasi uzoqqa cho'zilgan jinoyatlar deganda, odatda, qilmish natijasi harakat (harakatsizlik)ning bevosita oqibati bo'lmagan va qilmishdan ma'lum vaqt oralig'ida uzoqda bo'lgan jinoyatlar tushuniladi. Bunda jinoyat sodir etilgan vaqt muayyan hodisaning obyektiv tomonini tashkil etuvchi harakat yoki harakatsizlik sodir etilgan payt hisoblanadi.

Muallif jinoyat tarkibi tuzilishiga oid manbalar tahlili asosida jinoyatning tamom bo'lish vaqtiga ko'ra oltita tuzilishli jinoyat tarkibi turlarini ajratgan: 1) *aniq oqibatli tarkiblar* (97-m. 1-q., 2-q.); 2) *oqibati yuz berishi mumkin tarkiblar (xavfni yuzaga keltiruvchi tarkib)* (255-m. 1-q.); 3) *oqibatsiz tugallangan tarkibli qilmishlar* (137-m. 1-q.); 4) *"qilmish-tayyorgarlik" tarkibli* (242-m. 1-q.); 5) *"qilmish-suiqasd" tarkibli* (164-m. 1-q.); 6) *aralash tarkibli*, bir yoki bir necha tarkiblarni qamrab olgan jinoyatlar (tugallangan qilmish bilan birgalikda oqibatli jinoyatlar) (168-m. 1-q.).

Moddiy tarkibli jinoyatlar deganda, jinoyat-huquqiy norma dispozitsiyasida jinoiy oqibat (moddiy yoki nomoddiy) bevosita ko'rsatilgan jinoyat tarkiblari, shuningdek, qonun chiqaruvchi tomonidan jinoiy oqibat ko'rsatilmagan bo'lsada, jinoyatni tugallangan deb tan olish uchun ularning sodir bo'lishini nazarda tutuvchi jinoyatlar kiradi. *Xavfni yuzaga keltiruvchi tarkib deganda,* jinoiy oqibat yuz berishining xavfi yoki tahdidi yoxud imkoniyati yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tarkiblar nazarda tutiladi. Mazkur jinoyatlar yuzasidan olimlarning qarashlari tahlili asosida formal tarkibli jinoyatlar toifasiga kiritilgan. Ushbu jinoyatlar uchun javobgarlikni asoslash uchun sud shaxs tomonidan sodir etilgan harakat (harakatsizlik) ushbu vaziyatda zararli oqibatlar ehtimoli, xavfi yoki tahdid mavjudligini aniqlanishi lozim.

Formal tarkibli jinoyatlar deganda, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish uchun faqat harakat (harakatsizlik) sodir etish fakti bilan bog'langan jinoyat tarkiblari tushuniladi. *Formal tarkibli jinoyatlarning tamom bo'lish vaqti* harakatni amalga oshirish yoki harakatsizlik orqali muayyan majburiyatlarni sodir etishdan tiyilish bo'lib hisoblanadi. Dissertant formal tarkibli jinoyatlarda suiqasd qilish bosqichi mavjud bo'lmaydi, degan fikrga qarama-qarshi ravishda, ikki yoki undan ortiq xatti-harakat bilan bog'liq murakkab tarkibli jinoyatlarda mavjud bo'lishi mumkin, degan xulosaga kelgan.

Kesik tarkibli jinoyatlarning tamom bo'lish vaqti qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyat sodir etishning avvalgi bosqichi (tayyorgarlik yoki suiqasd)ga ko'chirilganligi bilan ifodalanadi. Og'ir jinoyat-huquqiy hodisalarga qarshi kurash

maqsadida qonun chiqaruvchi jinoyatlarning tugallanish vaqtini oldinroq bosqichga ko'chirganligi va ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz berishini muayyan darajada oldini olish maqsadida jinoyat qonunida kesik tarkibli jinoyatlar kiritilgan. Kesik tarkibli jinoyatlarning xususiyati jinoyatning faktik va yuridik tamom bo'lish vaqti o'zaro muvofiq kelmasligida ifodalanadi. Muallif tomonidan asosiy jinoyat tarkibi kesik tarkibli jinoyat bo'lsada, mazkur jinoyatning og'irlashtiruvchi qismlari tarkibi bir-biridan o'zaro farq qilishi mumkinligi asoslantirilgan.

Dissertatsiyaning "**Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishning yuridik tahlili**"ga bag'ishlangan beshinchi bobida jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishning umumiy tavsifi, jinoyat sodir etish bosqichlaridan ixtiyoriy qaytishning xususiyatlari, bajaruvchi (birga bajaruvchi)ning jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishiga oid normalarni takomillashtirish, dalolatchi, tashkilotchi va yordamchining jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytganligi uchun javobgarligi muammolari tahlil qilingan.

Muallif jinoyat qonunidagi jinoyatdan ixtiyoriy qaytish normasi insonparvarlik prinsipining amaldagi ifodasi ekanligini qayd etib, huquqiy tabiatiga oid ilmiy manbalar tahlili natijasida jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish *tamom bo'lmagan jinoyatning shaxsga bog'liq bo'lgan holatlarga ko'ra oxirigacha yetkazilmagan turi, degan xulosaga kelgan*. JK 26-moddasi *ikkiyoqlamalik xususiyati bilan tavsiflanishini*: xususan, shaxsni jinoyatdan ixtiyoriy qaytganligi uchun jinoiy javobgarlikdan ozod qilishni nazarda tutuvchi *rag'batlantiruvchi norma* (muayyan asos va shartlar mavjud bo'lganda) va tegishli vakolatli organlar tomonidan bunga yetarli asoslar mavjud bo'lganda uni *qo'llash majburiyatini yuklovchi norma* hisoblanishini asoslantirgan. Dissertant jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishning obyektiv belgilari (*qasddan jinoyat sodir etishni to'xtatish; ixtiyoriylik; qat'iylik; o'z vaqtida amalga oshirilganlik*) va subyektiv belgilari (*to'g'ri qasd, muayyan motiv asosida amalga oshirilishi*)ni tadqiq etish natijasida mualliflik ta'rifini ishlab chiqib, JK 26-moddasining 1-qismi quyidagi tahriri taklif etilgan: *shaxs jinoyatga shart-sharoit yaratish yoki jinoyat sodir etishga bevosita qaratilgan harakatlarni oxiriga yetkazish real imkoniyati mavjudligini anglagan holda qat'iy, ixtiyoriy, har qanday motiv asosida to'xtatsa, shuningdek, jinoiy oqibat kelib chiqishi mumkinligini anglagan holda, shunday oqibat kelib chiqishining oldini olsa, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deb topiladi*. Jinoyatdan ixtiyoriy va majburiy to'xtatilganlik holatlarini farqlash maqsadida jinoyat sodir etishga turtki bo'lgan holatlar o'rganilib, jabrlanuvchining xulq-atvori natijasida yuzaga kelgan motiv va tashqi ta'sirlar natijasida yuzaga kelgan motivlarga guruhlashtirilgan. O'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra ixtiyoriy qaytish motivlari sifatida: *fosh bo'lishdan qo'rqish (17%), jabrlanuvchiga achinish (14%), javobgarlikka tortilishdan qo'rqish (38%)* kabilar aniqlandi. Shuningdek, respondentlarning *44% jinoyatdan ixtiyoriy qaytishga motiv ta'sir ko'rsatmasligini* qayd etgan. Jinoyatdan ixtiyoriy qaytgunga qadar sodir etilgan qilmishda jinoyat tarkibi belgilari mavjud bo'lsada, shaxsning o'z tashabbusi bilan jinoyatdan voz kechganligi oqibatida ijobiy xulqi rag'batlantirilib, JKda huquqiy oqibati sifatida "jinoiy javobgarlik istisno etilishi" asosli degan xulosaga kelgan.

Jinoyat sodir etish bosqichlaridan ixtiyoriy qaytishning xususiyatlari o'rganilib, ixtiyoriy qaytish, qoida tariqasida faol xulq-atvorda namoyon bo'lishi, ijtimoiy xavfli oqibatlar yuz berishiga yo'l qo'yilmasligi, ijtimoiy xavfli oqibat yuz bergan taqdirda, uning oldini olish zaruriy sharti hisoblanadi. *Jinoyatga tayyorgarlik ko'rish bosqichidan ixtiyoriy qaytganda* shaxs jinoyatni sodir etish yoki yashirish uchun shart-sharoit yaratishga qaratilgan xatti-harakatni davom ettirishdan tiyiladi, hamda odatda passiv xulq-atvorda ifodalanadi.

Tamom bo'lmagan suiqasd bosqichidan ixtiyoriy qaytishda jinoyat obyektiv tomoniga kiruvchi xatti-harakatlarni sodir etishni boshlagan shaxs faoliyatini to'xtatadi. Bunda, shaxs boshlagan jinoiy qilmishini oxirigacha yetkazish imkoniyati mavjudligini anglagan holda, o'z xohishiga ko'ra, uzil-kesil voz kechganligi aniqlanishi talab etiladi. Jinoyat huquqi doktrinasida tamom bo'lgan suiqasddan ixtiyoriy qaytish mumkin emas, degan fikrlarga qarama-qarshi, muallif aksincha xulosaga kelgan va jinoyat tarkibi tuzilishiga ko'ra ularning alohida qoidalarini ishlab chiqqan. Jumladan, *moddiy tarkibli tamom bo'lgan suiqasddan ixtiyoriy qaytish mumkin, bunda quyidagi omillar inobatga olinishi lozim: birinchidan*, sodir etilgan qilmish va yuz bergan oqibat o'rtasida muayyan vaqt oralig'i mavjudligi, shaxs sababiy bog'lanish rivojlanishi ustidan nazorat qilish va jinoiy oqibat yuz berishini to'xtatish imkoniyati borligi; *ikkinchidan*, qilmish natijasida yuzaga keladigan oqibatlarni oldini olish uchun yetarli vaqt oralig'i mavjudligi; *uchinchidan*, jinoiy oqibat kelib chiqmasligi uchun shaxsga bog'liq barcha zarur choralar amalga oshirilganligi; *to'rtinchidan*, sodir etilgan jinoyat tarkibi tuzilishi (moddiy, formal).

Formal tarkibli tamom bo'lgan suiqasddan ixtiyoriy qaytishda quyidagilar inobatga olinishi lozim: obyektiv tomon jinoyat sodir etayotgan shaxs va boshqa shaxslarning o'zaro bog'liq harakatlaridan iborat bo'lishi, ixtiyoriy qaytish faol harakatlar bilan amalga oshirilishi hamda bunda jinoyatga suiqasd qilingunga qadar bo'lgan holatni tiklashda ifodalanadi. Shaxs sababiy bog'lanishning rivojlanishi ustidan nazorat qila olsa, jinoyatga aralashishi, harakatlarni to'xtatish va jinoiy oqibat yuz berishiga yo'l qo'yilmasligi mumkin. *Kesik tarkibli jinoyatlarda* jinoyatning tugallanish vaqti oldingi bosqichga ko'chirilganligi tufayli ixtiyoriy qaytish qisqa vaqt ichida amalga oshirilishi mumkin, biroq jinoyatning tamom bo'lish vaqti jinoyat sodir etishga suiqasd bosqichiga ko'chirilgan va shu paytdan boshlab jinoyat tugallangan hollarda, ixtiyoriy qaytish mumkin emas, degan xulosaga kelingan.

Shuningdek, "*shaxs o'zining xatti-harakati natijasida jinoiy oqibat yuz berishi mumkinligini anglagan holda, jinoiy oqibat yuz bermasligi uchun ixtiyoriy va ongli ravishda barcha zarur choralarni ko'rganligiga qaramasdan, jinoiy oqibat shaxsga bog'liq bo'lmagan va unga noma'lum bo'lgan holatlarga ko'ra yuz bermagan bo'lsa, shaxsning jinoiy javobgarligi JK 26-moddasi 2-qismiga ko'ra istisno etiladi*", degan tushuntirish ishlab chiqildi. Shuningdek, dissertant o'rganilgan jinoyat ishi materiallari tahlili va ilmiy manbalar sharhi asosida "*Nomusga tegish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish jinoyatidan ixtiyoriy qaytish jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va jinoyatga suiqasd qilish*

bosqichida amalga oshirilishi mumkin va shunga oid bo'lgan tushuntirishlar Oliy sudi Plenumi qarorida bayon etish taklifi ishlab chiqilgan.

Jinoyat ishtirokchilari (bajaruvchi, dalolatchi, tashkilotchi, yordamchi) tomonidan jinoyatdan ixtiyoriy qaytish ishtirokchilik va ixtiyoriy qaytish qoidalari jamlanmasi asosida hal qilinadi. Shuning boisi o'laroq, jinoyat huquqi doktrinasida ishtirokchilikning "aksessorlik tabiati" va ishtirokchilarning "individual javobgarligi" konsepsiyasi asosida hal qilinadi. Amaldagi jinoyat qonunida ishtirokchilarning jinoyatdan ixtiyoriy qaytish masalasi JK 30-moddasi 5-qismida umumiy bayon etilib, alohida qoida bilan tartibga solinmaganligi, amaliyotdagi muammolarni yuzaga keltirib, ushbu normaning "qo'llanilmasligiga olib kelayotganligi" sababli dissertant ishtirokchilar turlari va shakllaridan kelib chiqib, ixtiyoriy qaytish xususiyatlari, shartlari va javobgarligi doirasini tahlil qilgan.

Bajaruvchi va jinoyatning boshqa ishtirokchilari jinoyatdan ixtiyoriy qaytganda, ular ishtirokchilik uchun emas, balki jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik uchun javobgarlikka tortiladi (amalga oshmagan tashkilotchilik yoki amalga oshmagan dalolatchilik yoxud amalga oshmagan yordamchilik sifatida). Bajaruvchining jinoyatdan voz kechishi boshqa ishtirokchilar javobgarligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. *Shunga muvofiq, bajaruvchi jinoyatdan voz kechganda boshqa ishtirokchilarning qilmishi bajaruvchi qaysi bosqichdan ixtiyoriy qaytganidan kelib chiqib, ishtirokchilikka tayyorgarlik yoki ishtirokchilikka suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilinishi kerak.*

Mazkur qoidadan kelib chiqib, Oliy sudi Plenumi qaroriga quyidagi tushuntirish berilishi maqsadga muvofiq: *"Bajaruvchi o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra jinoyatni oxiriga yetkazmagan yoki jinoyatdan ixtiyoriy qaytgan hollarda, boshqa ishtirokchilarning qilmishi ishtirokchilikka tayyorgarlik ko'rish yoki ishtirokchilikka suiqasd deb topiladi. O'ziga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra boshqa shaxslarni jinoyat sodir etishga ko'ndira olmagan shaxs jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik uchun javobgarlikka tortiladi". Birga bajaruvchilik deganda, jinoiy javobgarlikka tortiladigan ikki yoki undan ortiq bajaruvchilarning aniq jinoyatning obyektiv tomonini birgalashib to'la yoki qisman sodir etish tushuniladi. Shunga binoan, birga bajaruvchilarning barchasi o'z tashabbusi yoki ishtirokchilardan birining taklifi, maslahati, iltimosiga ko'ra jinoyatni oxiriga yetkazishdan ixtiyoriy qaytgan hollarda, javobgarlikka tortilmasligi asoslantirgan.*

Tadqiqotchi birga bajaruvchilarning ayrimlari jinoyatdan ixtiyoriy voz kechganda, boshqalari tomonidan jinoyat oxiriga yetkazilgan hollarda, jinoyat huquqi doktrinasidagi bir necha yondashuvlarni tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelingan: a) ishtirokchilar o'rtasidan oldindan kelishuv bo'lganda (bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib), bajaruvchi o'zi va jinoiy sherigi qilmishini to'xtatishi hamda jinoiy oqibat yuz berishini oldini olishi zarur; b) ishtirokchilar o'rtasida oldindan kelishuv bo'lmaganda (bir guruh shaxslar tomonidan), birga bajaruvchi o'zining xatti-harakatlarini sodir etishni to'xtatsa, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytgan deb topiladi. Birga bajaruvchining amalga oshmagan ixtiyoriy qaytishi sud tomonidan jazoni yengillashtiruvchi holat deb topilishi lozim. Javobgarlik yoshiga to'lmagan, aqli noroso shaxslardan foydalanib jinoyatni amalga oshirgan shaxs bevosita bajaruvchilik deb topilib, ixtiyoriy

qaytishi o'ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi. *Bevosita bajaruvchi jinoyatni oxiriga yetkazish mumkinligini anglagan holda, o'z xohishiga ko'ra javobgarlik yoshiga to'lmagan shaxslar, aqli norasoligiga ko'ra javogarlikka tortilmaydigan shaxslarning jinoyat sodir etishini har qanday usullar orqali oldini olishi yoki jinoiy oqibat yuz bermasligiga yo'l qo'ymasligi zarurligini asoslantirgan.* Dissertant tahlillar natijasida JK yangi tahrirdagi "26¹-modda. *Bajaruvchining jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishi*" normasi kiritish zarurligini asoslab bergan.

Muallif jinoyat ishtirokchilarining turlariga ko'ra, jinoyatdan ixtiyoriy qaytishni differentsiatsiya qilib tahlil qilgan. Jumladan, *dalolatchi huquq tartibot organlariga xabar berish yoki boshqa choralar ko'rish orqali bajaruvchi tomonidan jinoyat sodir etilishi yoki boshlangan jinoyatni oxiriga yetkazilishiga to'sqinlik qilib, jinoyatdan ixtiyoriy qaytganda javobgarlik istisno qilinishi asoslantirilgan. Tashkilotchi bajaruvchi tomonidan jinoyat sodir etilishini yoki boshlangan jinoyatini oxiriga yetkazilishini oldini olgan hollarda, ixtiyoriy qaytganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Jinoyatni oldini olishga qaratilgan, ammo bunday natijaga olib kelmagan xatti-harakatlar jinoyatdan ixtiyoriy qaytish deb topilmaydi, degan xulosaga kelingan. Yordamchi jinoyat sodir etilishiga ko'mak ko'rsatishdan voz kechgan yoki bajaruvchi uning yordamidan foydalangunga qadar, amalga oshirgan yordamini bartaraf etgan bo'lsa, jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Agar yordamchi o'z maslahati, ko'rsatmalari bilan, jinoyat quroli yoki vositalarini berish yoxud to'siqlarni yo'qotish bilan bajaruvchiga ko'maklashgan hollarda, tashkilotchi, dalolatchi va yordamchi hokimiyat organlariga xabar berish yoki boshqa choralar ko'rish orqali jinoyat sodir etilishiga to'sqinlik qilgan bo'lsa, jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilmasligi lozimligi asoslantirilgan.*

XULOSA

Jinoyat sodir etish bosqichlarining nazariy va amaliy muammolarini o'rganish natijasida quyidagi taklif va xulosalarga kelingan:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. **Jinoyat sodir etish bosqichlari deganda,** jinoiy niyatni amalga oshirish darajasi, amalga oshirilgan harakat yoki harakatizlikning xususiyati va jinoyatni oxiriga yetkazilmaganlik vaqtiga ko'ra farqlanuvchi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishning rivojlanish davri tushuniladi.

2. Jinoyat sodir etish bosqichlari quyidagilardan iborat: 1) jinoiy niyatning shakllanish bosqichi; 2) jinoiy niyatning namoyon bo'lish bosqichi; 3) jinoiy niyatni amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratish bosqichi (jinoyatga tayyorgarlik ko'rish); 4) ijtimoiy xavfli qilmishni bevosita amalga oshirishni boshlash bosqichi (jinoyat sodir etishga suiqasd qilish); 5) ixtiyoriy qaytish bosqichi (jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish); 6) tamom bo'lgan jinoyat bosqichi (ijtimoiy xavfli qilmishni to'liq amalga oshirish yoki ijtimoiy xavfli oqibat yuz berishi).

3. Tamom bo‘lmagan jinoyatlarni shaxs irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra oxirigacha yetkazilmagan jinoyat – jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilish hamda shaxs irodasiga bog‘liq bo‘lgan holatlarga ko‘ra oxiriga yetkazilmagan – jinoyatdan ixtiyoriy qaytishga ajratish maqsadga muvofiq.

4. Shaxsning sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishida jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish tarkibining barcha belgilari mavjudligi **jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish**, shaxs sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishida jinoyat sodir etishga suiqasd qilish tarkibining barcha belgilari mavjudligi **jinoyat sodir etishga suiqasd qilish uchun jinoiy javobgarlikning asosi** hisoblanadi.

5. **Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishning obyektiv belgilari:** 1) JK bilan muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazish xavfining mavjudligi; 2) jinoyatni sodir etish va yashirish uchun sharoit yaratishga qaratilgan ijtimoiy xavfli, huquqqa xilof qilmishning amalga oshirilishi; 3) shaxs irodasiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra jinoyat oxiriga yetkazilmaganligi. **Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishning subyektiv belgisi:** shaxsda jinoyatni sodir etish va yashirish uchun sharoit yaratishga qaratilgan *to‘g‘ri qasdning* mavjudligi.

6. **Jinoyatga suiqasd qilishning obyektiv belgilari:** 1) ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazilishi; 2) jinoyat sodir etish bevosita boshlanganligi; 3) JK Maxsus qism dispozitsiyada nazarda tutilgan harakat yoki harakatsizlik amalga oshirilishi; 4) shaxs istagan jinoiy oqibat kelib chiqmasligi; 5) shaxsga bog‘liq bo‘lmagan bevosita obyektiv va bilvosita obyektiv sabablarga ko‘ra oxirigacha yetkazilmasligi. **Jinoyatga suiqasd qilishning subyektiv belgilari:** 1) shaxsda jinoyatni sodir etishga qaratilgan *to‘g‘ri qasdning* mavjudligi; 2) shaxsning *maqsadi* to‘g‘ri qasddan sodir etiladigan jinoyatni bajarishga bevosita qaratilgan harakat (harakatsizlik)ni bajarishi va jinoyatni oxiriga yetkazishi.

7. Shaxs ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilish maqsadida o‘zi tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan barcha zarur harakat yoki harakatsizlikni irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra amalga oshirmagan bo‘lsa, **yakunlanmagan suiqasd** deb topiladi. Shaxs ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qilish maqsadida shaxs tomonidan amalga oshirilishi zarur bo‘lgan barcha harakat yoki harakatsizlik amalga oshirilgan, biroq qilmish shaxsning irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra oxirigacha yetkazilmagan bo‘lsa, **yakunlangan suiqasd** deb topiladi.

8. **Davomli jinoyat deganda**, umumiy qasd bilan qamrab olingan va yagona maqsadga yo‘naltirilgan bir jinoyat tarkibini tashkil etuvchi bir-biriga o‘xshash bir necha jinoiy qilmishlarni sodir etish tushuniladi. Davomli jinoyatning boshlanish vaqti yagona davomli jinoyatni tashkil qiluvchi bir necha o‘xshash xatti-harakatlarning birinchisi sodir etilgan payt bo‘lsa, tamom bo‘lish vaqti davomli jinoyatni tashkil qiluvchi so‘nggi xatti-harakat sodir etilgan payt hisoblanadi. Davomli jinoyat tamom bo‘lish vaqtida amalda bo‘lgan qonun qo‘llanilishi lozim.

9. **Uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlar deganda**, muayyan harakat yoki harakatsizlik shaklida boshlanib, keyinchalik muayyan vaqt oralig‘ida harakatsizlik ko‘rinishida davom etuvchi jinoyatlar tushuniladi. Uzoqqa cho‘zilgan jinoyatning tamom bo‘lish vaqti jinoyat tugallangan yoki to‘xtatilgan vaqt hisoblanadi. Mazkur davr oralig‘ida amalda bo‘lgan qonun qo‘llanilishi lozim.

10. **Natijasi uzoqqa cho‘zilgan jinoyatlar deganda**, qilmish natijasi harakat (harakatsizlik)ning bevosita oqibati bo‘lmagan va qilmishdan ma’lum vaqt oralig‘ida uzoqda bo‘lgan jinoyatlar tushuniladi. Jinoyat sodir etilgan vaqt muayyan hodisaning obyektiv tomonini tashkil etuvchi harakat yoki harakatsizlik sodir etilgan vaqt bo‘ladi.

11. **Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish** shaxsning ijobiy xulq-atvorini rag‘batlantirishga qaratilgan norma hisoblanib, shaxsning jinoiy faoliyatini to‘xtatishga, ijtimoiy xavfli oqibat yuz bermasligini oldini olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytishning obyektiv belgilari – qasddan jinoyat sodir etishni to‘xtatish, ixtiyoriylik, qat’iylik, jinoyatdan ixtiyoriy qaytishning o‘z vaqtida amalga oshirilganligi; subyektiv belgilari – to‘g‘ri qasddan amalga oshirilishi va har qanday motiv asosida amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi.

II. Qonunchilikni takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi “**VI. Tamom bo‘lmagan jinoyatlar**” nomli bobini quyidagi tahrirda ifodalash maqsadga muvofiq:

25-modda. Tamom bo‘lmagan jinoyat

Jinoiy niyatni amalga oshirishga qaratilgan huquqqa xilof, ijtimoiy xavfli qilmish shaxsga bog‘liq bo‘lgan yoki bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra oxirigacha yetkazilmagan bo‘lsa, tamom bo‘lmagan jinoyat deb topiladi.

Tamom bo‘lmagan jinoyatlar shaxs irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra oxiriga yetkazilmagan (jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish, jinoyat sodir etishga suiqasd qilish) va shaxsning irodasiga ko‘ra oxiriga yetkazilmagan jinoyat (jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish)larga bo‘linadi.

25¹-modda. Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish

To‘g‘ri qasddan jinoyat quroli yoki vositasini tayyorlash, moslashtirish, qo‘lga kiritish yoki jinoyat ishtirokchisini izlash, jinoiy til biriktirish yoxud qasddan boshqa sharoit yaratishga qaratilgan qilmish sodir etiladigan jinoyat boshlangunga qadar shaxsga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga ko‘ra to‘xtatilgan bo‘lsa, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish deb topiladi.

